

O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA HUNARMANDCHILIK TURLARI VA ULARNING TAVSIFI

Mamarajabov G‘ayrat Abdulxakimovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

mamarajabovg@tersu.uz

<https://orcid.org/0009-0001-6486-898X>

UO‘K: 94:745(575.1)“1991/2020”

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy hududlarida, xususan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida mustaqillik yillarida rivojlangan milliy hunarmandchilik turlari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda hududiy hunarmandchilik tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishiga tabiiy sharoit, xom ashyo bazasi, tarixiy an‘analar hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarining ta’siri ochib berilgan. Gilamchilik, do‘ppichilik, kashtachilik, zardo‘zlik, ganchkorlik, o‘ymakorlik, temirchilik, zargarlik, kulolchilik, chinnisozlik va cholg‘usozlik kabi hunarmandchilik turlarining hududiy maktablari, texnologik usullari va badiiy bezak xususiyatlari manbalar hamda dala tadqiqotlari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: janubiy hududlar, milliy hunarmandchilik, Surxondaryo, Qashqadaryo, hududiy maktablar, gilamchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, kulolchilik, zargarlik, an‘anaviy san‘at.

Аннотация: В статье проанализированы виды национального ремесленничества, развивавшиеся в годы независимости в южных регионах Узбекистана, в частности в Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областях, а также их специфические особенности. В исследовании раскрыто влияние природных условий, сырьевой базы, исторических традиций и социально-экономических потребностей населения на формирование и развитие региональных ремесленных отраслей. На основе источников и полевых исследований освещены региональные школы, технологические приёмы и художественно-декоративные особенности таких видов ремесленничества, как ковроткачество, тубетейкоделие, вышивка, золотошвейное

искусство, ганчкорство, резьба, кузнечное дело, ювелирное искусство, гончарство, фарфоровое производство и изготовление музыкальных инструментов.

Ключевые слова: южные регионы, национальное ремесленничество, Сурхандарья, Кашкадарья, региональные школы, ковроткачество, вышивка, золотошвейное искусство, гончарство, ювелирное дело, традиционное искусство.

Abstract: This article analyzes the types of national handicrafts that have developed during the years of independence in the southern regions of Uzbekistan, particularly in the Surkhandarya and Kashkadarya regions, as well as their distinctive characteristics. The study reveals the influence of natural conditions, raw material resources, historical traditions, and the socio-economic needs of the population on the formation and development of regional handicraft sectors. Based on written sources and field research, the article examines regional schools, technological methods, and artistic and decorative features of such handicraft types as carpet weaving, skullcap making, embroidery, gold embroidery, ganch carving, wood carving, blacksmithing, jewelry making, pottery, porcelain production, and musical instrument craftsmanship.

Keywords: southern regions, national handicrafts, Surkhandarya, Kashkadarya, regional schools, carpet weaving, embroidery, gold embroidery, pottery, jewelry making, traditional art.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik taraqqiy ettirib borilar ekan, har bir hudud o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda hunarmandlar o‘zlari yashab turgan hududlarining tabiiy sharoiti, arzon xom

ashyo bazasi, mavjud texnik imkoniyatlari, aholining talab va ehtiyojlari, ichki va tashqi bozorlardagi narx-navodan kelib chiqqan holda o'z faoliyatlarini olib borishadi. Shundan kelib chiqib, har bir hududda hunarmandchilik muayyan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va bozorga yetkazib beriladi. Natijada, yurtimizda hunarmandchilikning unutilayotgan yoki unutilgan turlari qayta tiklanib, yanada rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bugungi kunda janubiy mintaqalarda aholining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hunarmandchilikning quyidagi turlari keng tarqalmoqda. Bular:

1. Gilamchilik;
2. Do'ppichilik;
3. Kashtachilik;
4. Zardo'zlik.
5. Ganchkorlik;
6. O'yimakorlik;
7. Temirchilik;
8. Zargarlik;
9. Kulolchilik;
10. Chinnisozlik;
11. Cholg'u hunarmandchiligi.

Gilamchilik – xalq hunarmandchiligining qadimiy turlaridan biri. Qadimda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining asosiy mashg'uloti bo'lgan. Chunki chorvadorlar jun mahsulotiga juda boy bo'lib, gilam to'qishda qo'y va tuyaning junidan foydalanishgan.

O'zbekiston janubiy mintaqalarida gilamni to'qishda paxta va jundan foydalanganlar. Paxtadan gilam to'qish dehqonchilik bilan shug'ullanadigan hududlarida yashovchi aholi orasida mavjud bo'lsa, chorvador aholi yashovchi joylarda jundan gilam to'qish ustunlik qiladi. Ishni boshlash uchun oldin gilamning qolipi tanlab olinadi va tanda ipi tanlanadi. Chunki, gilamning tanda ipi qancha baquvvat bo'lsa, gilam shuncha chiroyli va pishiq bo'ladi[1].

Surxondaryo viloyatida to'qiladigan gilamlar asosan uch xil uslubga asoslanadi:

1. Junni ipga aylantirmasdan to'g'ridan-to'g'ri zichlash (presslash) uslubida yaratiladigan kigizlar.
2. Junni ipga aylantirgan holda mato to'qish uslubida (janda, olacha, arabi va boshqa)

to'qiladigan mato gilamlar.

3. Murakkab shakldagi bezaklar qo'llaniladigan patli gilamlar[2].

Qashqadaryo va Surxondaryo qishloqlarida julxirs deb ataluvchi gilamlar ham to'qiladi. Julxirs gilamida erish iplari 200-250 donadan iborat bo'lib, bir tomonlama bog'lanadi va qirilmaydi. Bunda uskuna olacha gilamnikiga o'xshab quriladi va ensiz shaklda quloqlab o'lchanadi. Gilam to'qilgandan keyin gullari sanalib, so'ng qirilmaydi. Gilamchilar gilamning o'sha qirilmadigan joylarini olachaga o'xshatib pat bog'lamay ketishadi[3].

Mintaqa gilamchiligiga xos bo'lgan xususiyat – bu portret gilamlarning paydo bo'lishidir.

Do'ppichilik — turkiy tilda «tepa», «do'nglik» degan ma'noni anglatadi. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida do'ppi «qalpoq» deb atalsa, laqay urug'idagilar uni «takya», «takiya», Xorazm aholisi «taxya» deb ataydilar. Boysunda «kalapo'sh» nomi bilan mashhur. Boshqa kiyimlardan farqli o'laroq u uyda aziz sanalib, baland joyga saqlanadi.

Do'ppining yaratilish tarixi uzoqqa borib taqaladi. Do'ppiga o'xshash nusxalar qadimgi haykalchalar, tangalar, devorlarga solingan rasmlarning parchalarida va o'rta asarlarda chizilgan miniatyuralarda ko'rish mumkin.

Boysunda bosh kiyimlarning bir nechta turi tayyorlanadi. Ular quyidagilardir:

Baxmal do'ppi – boysunlik ayollar kiyim yuradi;

Lolagul do'ppi – kuyovlar va kuyovjo'ralar kiyishadi;

Munchoqli do'ppi – uning qizil rangdavisini kelinlar, yashilini o'rta yoshli xotinlar kiyishadi.

Kiygich (kulta) – ayollar sochini ushlab turish uchun mo'ljallangan bosh kiyim. Boysunlik qo'ng'iro't-o'zbeklarda ochiq, tojiklarda yopiq bo'ladi. Kiygichning ustidan ro'mol yopinishgan[4].

Ta'kidlash joizki, boysunlik do'ppi ustalari tomonidan eski usulda urchuqda yigirilgan ipak iplar kashtaga solinganda xuddi yangidek, kir olmay ko'p yillar o'z tusini saqlab qolgan. Lekin fabrikadan olib kelingan akril, viskoza iplar o'z aslini saqlab qola olmay, tezda rangi o'chib qolgan.

Kashtachilik — kashta tikish kasbi, amaliy sa'atning qadimgi sohalaridan biri. Kashtaning paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Kashta qo'lda (igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan) yoki mashinada, asosan, matoda (bo'z, satin, chit, shoyi, baxmal va boshqa) va charm (etik, mahsi, pichoq, va boshqa) tikiladi. Kashtada o'simliksimon naqshlar, handasiy shakllar, fazoviy jismlar, meva va hayvonlarning uslublashtirilgan tasvirlari, baytlari, keyinroq kishilarning qiyofalari, me'moriy obidalar ham o'z ifodasini topgan. Kashta tikish turli choklardan matoga avvaldan andaza yordamida tushirilgan gul, tasvir, naqsh asosida, ba'zan matoga iplari sug'urilib tayyorlangan asosda sanama usulida bajariladi. Bunda jun, ip, ipak, zig'ir tolali tabiiy va sun'iy (sintetik) tolalardan, metallardan (tilla, kumush) tayyorlangan iplar ishlatiladi. Shuningdek, dur, nozik, piston, ba'zan qimmatbaho tosh va tangalar keng ishlatiladi. Mato, mo'yna, charmlardan quroq tikishda kashtadan foydalaniladi.

Bugungi kunda Surxondaryoda kashtachilikning oltita maktabi bor. Bular:

1. Boysun;
2. Muzrabot-Sherobod;
3. Sariosiyo-Uzun;
4. Jarqo'rg'on-Qumqo'rg'on;
5. Laqay (Qumqo'rg'on-Tojikiston chegarasida);
6. Turkman (Termiz-Muzrabotda).

Qashqadaryo kashtachiligida ikkita — Shahrisabz va Qarshi maktablari shakllangan. Bu maktablar qo'llaydigan usullar bir-biridan unchalik farq qilmasa-da, lekin naqsh turlari, shakli, ranglari bo'yicha bir-biridan ajralib turadi.

Zardo'zlik — hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri, oltin (zar) ip bilan naqsh (kashta) tikishdir. Asosan Buxoro viloyati aholisi shug'ullangan. Zardo'zlikda baxmal, shoyi, movut, charm va boshqa matolarga zar ip bilan kashta (gul, naqsh, tasvir) tikiladi. Kashtaga ba'zan metall, tosh, shisha munchoqlar ham ishlatiladi. Shakllarni yaratishda zardo'zi, zamindo'zi, guldo'zi, birishido'zi, pulakchado'zi, izmag kabi turli usullardan foydalaniladi[5].

Qarshi, Jizzax shaharlari, Surxondaryo

viloyati zamonaviy zardo'zlik san'atining markazlari bo'lib, zardo'z ustalar chopon, do'ppi, nimcha kabi liboslar qatorida mavzuli namoyonlar, teatr pardalari hamda sovg'a buyumlar, ignadonlar, ko'zoynak g'ilofi, upa-elik sumkachalarini zardo'zlik usullarida bezatishni rivojlantirdilar[6].

Ganchkorlik — badiiy hunarmandchilik turi bo'lib, binolarni bezatishda, me'moriy detallarni ishlashda, devor va shiftlarni suvashda, bezak shakllari hamda o'yma naqsh va tasvirlar yaratishda keng qo'llaniladi. Qadimda Termiz, Qarshi, Shahrisabz kabi shaharlar ganchkorlikning markazi bo'lishgan. Bugungi kunda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining deyarli barcha shahar va qishloqlarida tarqalgan. Ganchkorlikda bezak ikki usulda bajariladi: o'ymakorli usulida bino devori suvoq qilinib, bezatiladigan qismiga naqsh ishlanadi; qolipaki usulida tayyor bezak sirtga o'rnatiladi. Qolipaki usuli bezakni birdaniga ko'p miqdorda tayyorlash imkonini beradi. Hozir qoliplar yordamida ko'p nusxada ganch bezaklar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Ularning yordamida uylarning derazalari, darvoza chetlari, devorning tom bilan tutashgan joylari va devor sirtlari bezatilmoqda.

1990-yilda Toshkentda ganchkorlik maktabi — «Usto» birlashmasi tashkil qilingan. Bu maktab Termizdagi Arxeologiya muzeyi, Bolalar qo'g'irchoq teatri, Ro'zi Choriyev nomli galereya va boshqa binolarni bezashda jonbozlik ko'rsatdi. Bundan tashqari, Termizdagi «O'zbekim», «Almaz-Grand» to'yxonalarining tashqi va ichki qismlari ham yuksak didli ganch bezaklar bilan qoplangan. Surxondaryodagi ganch o'ymakorligi asosan Toshkent va Farg'ona maktablariga yaqin usulda olib borilmoqda.

O'ymakorlik — amaliy san'atning qadimiy va keng tarqalgan turi bo'lib, yog'och, ganch, metall, tosh, suyak, terrakota va boshqalarni o'yish, yo'nish, kesish yo'li bilan badiiy shakl yasash san'ati. Bu san'atdan buyumlar, turli asboblarni nafislashtirishda, binolarni bezashda, kichik shaklli haykaltaroshlik kompozitsiyalari yaratishda foydalaniladi.

Surxondaryo o'ymakorlik maktabi o'zining soddaligi va o'simliksimon naqshlarning qisqa, lekin chuqur o'yilganligi bilan ajralib turadi. Bunday turdagi o'ymakorlik namunalari

Sherobod tumanidagi Zarautsoy, Zarabogʻ, Qizilolma, Kampirtepa qishloqlaridagi masjidlarda uchraydi. Mustaqillik yillarida Termiz shahrida yogʻoch oʻymakorligi yanada rivojlandi. Jumladan, Termiz arxeologiya muzeyining eshigi, Termizdagi «Murchbobo» jome masjidining ustunlari, Termiz davlat universiteti tuzilmasidagi «Qatagʻon qurbonlari muzeyi» ekspozitsiyasidan joy olgan goʻzal oʻsimliksimon naqshlar bilan bezalgan katta eshik, Termizning Doʻstlik bogʻidagi qariyalar choyxonasi va Xotira maydonidagi ustunlar betakror naqshlar bilan bezatilgan. Mahalliy ustalar tomonidan, turli uy-roʻzgʻor buyumlariga oʻyma naqshlar berilib, oʻziga xos tarzda rang berilmoqda.

Temirchilik – hunarmandchilikning ushbu turi qadimdan rivojlanib kelgan. Ular aholi ehtiyojlari uchun zarur boʻlgan temirchilik buyumlarini yasab berishgan. Masalan, dehqonlar uchun bel, ketmon, oʻroq, panshaxa, chalgʻi, chopqi va boshqalarni mahalliy temirchilar tayyorlab berishgan. Har bir qishloqda temirchi usta boʻlgan. Ishlab chiqarish quroli turli oʻlkalarda turlicha atalgan. Fargʻona va Toshkentda «yondoʻkon», Buxoro va Surxondaryoda «qoʻra», Xorazmda «dastgoh» deyilgan. Buxoro amirligi davrida temirchilikning oʻzi 19 ta hunarmandchilik tarmogʻiga boʻlingan. Bu esa temirchi kasbining nechogʻlik darajada yuksak maqomga ega boʻlganligini koʻrsatadi[7].

Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qarshi, Shahrisabz, Boysun, Toshkent, Fargʻona temirchilik maktablari oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, ular bezak berish uslubi, shakli va ornamentlari bilan ham oʻzaro farqlangan. Har bir maktab buyumlarining nafosatligi, goʻzalligi, umumiyli bilan ham bir-biridan ajralib turgan.

Zargarlik - qimmatbaho metallardan turli taqinchoqlar yasash. Qadimda qabila boshliqlari va ularning ayollariga boshqalardan ajralib turishlari uchun taqinchoqlar tayyorlab berilgan. Bu taqinchoqlar tosh, suyak va yogʻochdan tayyorlangan. Shundan soʻng bu bezaklarni tayyorlab chiqadigan ustalar yetishib chiqqan boshlagan. Ular hozirgi kundagi zargarlarning ilk vakillari edi.

Surxondaryo viloyatidagi eng mashhur zargarlar Boysunda yashashgan. Ular

tomonidan, tillaqosh, gardon, takiyatuzi, mohitilla, sirgʻa, toj, bodomoy, silsila, sochpopuk, tillotargak, tosaukele, shokila, gajak, kushduo, butuntirnoq, yarimtirnoq, zirk, xalqa, gulband, tepish-i-dil, nozirgardon, bezak-kubba, boʻyin-tumor, koʻkraktumor, amuletlar (qoʻltiqumor), bilakuzuk, uzuk va boshqalar yasalganlar[8].

Bugungi kunda Oʻzbekistonning Xiva, Buxoro, Qoʻqon, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Denov, Boysun, Sherobod, Termiz, Toshkent, Andijon, Urganch, Nurota, Kitob, Chust, Asaka, Gʻijduvon, Margʻilon va boshqa shaharlarda yirik zargarlar yetishib chiqib, maxsus joylarda oʻz doʻkonlarini ochishgan.

Kulolchilik - loydan sopol buyumlar tayyorlovchi hunarmandchilik turi. Inson kulolchilik bilan neolit davridan boshlab shugʻullangan. Maxsus loydan buyumlar qoʻlda yasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproq jahonning hamma yerida mavjudligi deyarli hamma xalqlarda kulolchilikning keng tarqalishini taʼminladi.

Dala tadqiqotlarimizga asosan, bugungi kunda janubiy mintaqalarda quyidagi kulolchilik maktablari mavjudligi aniqlandi:

1) Kasbi (Qashqadaryo) maktabi[9].

2) Sherobod – Termiz (Surxondaryo) maktabi.

Bundan tashqari, deyarli barcha tumanlarda aholi ehtiyojlari uchun tandir tayyorlash yoʻlga qoʻyilgan. Ularning mahsuloti butun viloyat boʻylab sotiladi. Tandirlar buyurtma asosida yoki bozor uchun moʻljallab ishlab chiqarilmoqda.

2021-yil 23-mart kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga koʻra, 2021-yilda 5400 dona mahsulot ishlab chiqarish nazarda tutildi. Yangidan tashkil etiladigan kulolchilik markazlaridagi turar va noturar joylar uchun mol-mulk va yer soligʻi stavkalari ularga nisbatan mulk huquqi kulollarga berilgan oydan boshlab uch yil davomida 50 foiz miqdorida oʻrnatildi. Shuningdek, 2021-yil 1-aprelgacha usta-shogird anʼanalari asosida yoshlarga hunar oʻrgatayotgan kulollarga shogirdlar tayyorlashi, zarur xom ashyo sotib olishi va

shogirdlarni ish haqi bilan ta'minlashi uchun subsidiyalarni ajratish tartibi joriy etiladi[10].

Chinnisozlik — janubiy mintaqalar uchun yangi bo'lgan hunarmandchilik tarmog'i. 2015-yil 19-mart kuni Termiz shahrida ishbilarmon hunarmand Rustam Ne'matullayev tomonidan chinni buyumlar tayyorlovchi OOO «Surxon Termiz Chinni» zavodi ishga tushirilgan. Korxona yiliga sakkiz million donagacha chinni buyumlarini ishlab chiqarish quvvatiga ega. Unda 150 nafar ishchi ikki smenada ishlab, 14 turdagi mahsulot ishlab chiqarmoqda. Ularning 88 nafari ayollar, 52 nafari kollej bitiruvchilari bo'lgan[11]. 2017-yilga kelib zavod kuniga 18 mingga yaqin chinni idishni ishlab chiqarishga erisha oldi. Bunda nafaqat ichki bozorni, balki qo'shni davlatlarga ham eksportni yo'lga qo'ygan. Jumladan, 2017-yilning o'zida Afg'onistonga 35 000 AQSH dollari, Tojikistonga esa, 21000 AQSH dollariga teng mahsulot sotildi[12]. 2018-yilning o'zida Tojikistonga 150 ming AQSh dollariga teng mahsulot eksport qilindi[13]. Zavod ish turini kengaytirib, idishlarni qadoqlash va o'rash maqsadida Toshkent shahridan qog'oz mahsulotini olib kelish to'xtatilib, zavodning o'zida ham ishlab chiqarish boshlandi.

Cholg'usozlik — hunarmandchilikning nisbatan keng tarqalayotgan turlaridan biri. Surxon vohasida dutor, do'mbira, tor, kabi musiqa asboblari yasash asosan Sho'rchi tumanida rivojlangan. Bu ish bilan Zokirova Oysoat, Poyonov Mengnor, Shafoat Mamataliyev va Husan Haydarovlar

shug'ullanadilar. Jumladan, Mamataliyev Shafoat bobo 1927-yil 10-martda Sho'rchi tumanidagi Sovjiron qishlog'ida tug'ilgan. Do'mbira yasashni ustozlari Yarmat Ortiqov va Husan Haydarovlardan o'rgangan. Endilikda do'mbiralarni yasab shogirdlari, bolalari va nevaralariga o'rgatmoqda. Sho'rchi tumanida o'tkazilgan «Tashabbus- 2013» tuman bosqichida qatnashib faxrli o'rinni egallagan[14].

Sho'rchilik yana bir do'mbira ustasi Husan Haydarov 1926-yilda Tolli qishlog'ida tug'ilgan. Mohir usta yasagan do'mbiralarni nafaqat O'zbekistonda, balki chet ellarda ham mashhurdir. Afg'oniston, Amerika, Germaniya kabi davlatlarga olib ketilgan. Usta Husan Haydarov yasagan do'mbiralarni mashhur Qodir baxshi, Shoberdi baxshi, Karim baxshilar ham sevib chaladilar. Xalq og'zaki ijodiyoti bilan shug'ullanuvchi professor Malik Murodov ham usta Husan bobo Haydarov bilan muloqotda bo'lib turgan[15].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilganda, O'zbekiston janubiy mintaqalarida qadimdan hunarmandchilik taraqqiy etib kelgan. Aholi hunarmandchilikning ko'plab turlari bilan shug'ullanib kelgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston xalqining boy madaniy merosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish asosida aholini ish bilan ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Kilkon qishlog'i, 2022-yil noyabr.
2. Dala yozuvlari, Angor, Termiz, Boysun, Sherobod, Denov va Qumqo'rg'on tumanlari. 2020-yil.
3. Dala yozuvlari, Muzrabot tumani, Qizilolma qishlog'i, 2019-yil may.
4. Dala yozuvlari, Boysun tumani, Sariosiyo qishlog'i, 2021-yil may.
5. <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-108161-1.html?page=6>
6. <http://www.ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-5/453-zardozlik>
7. <https://uzor.uz/narodnie-umesla/iskusstvo-metalloobrabotki/kuznechnoe-delo/>
8. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. —Toshkent: Akademnashr, 2011. —B. 136.
9. <https://www.qashqadaryogz.uz/read/buyuk-ipak-j-li-merosi-j-laklari-khal-hunarmandchiligi-andaj-sharoitida-rivozhlanadi>
10. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2021-y., 07/21/5033/0227-son.
11. <https://uza.uz/uz/posts/termiz-chinnilari-eksport-ilinadi--19-03-2015>

12. https://daryo.uz/k/2017/09/28/surxondaryolik-xususiy-tadbirkor-afgonistonga-35-ming-dollarlik-shartnoma-asosida-chinni-buyumlar-yetkazib-berdi/?fbclid=IwAR0g-kOxQXz_shTr7ueX4UuLiN2Dlkv9dh-J9q4Opg_JR_eciOQXoJ_po8w
13. <https://uza.uz/uz/posts/termiz-chinnilarining-tozhikistonda-am-kharidori-k-p-23-02-2018>
14. Dala yozuvlari, Shoʻrchi tumani, Savjiron qishlogʻi, 2013-yil, iyun.
15. Dala yozuvlari, Shoʻrchi tumani, Tolli qishlogʻi, 2015-yil, mart.